

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020 – yilning yanvar – mart oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 6 576,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019 – yilning mos davriga nisbatan 4,0 % ga o'sdi.

2020 – yil yanvar – mart yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 1 749,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 2,1 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,0 % ni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>2019-yil yanvar- martga nisbatan % da</i>
	<i>2019-yil yanvar- mart</i>	<i>2020-yil yanvar- mart</i>	
<b>I. YaHM</b>	<b>5 716,2</b>	<b>6 576,3</b>	<b>104,0</b>
<i>Shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 258,5	6 341,5	104,0
Mahsulotlarga sof soliqlar	457,7	234,8	104,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>5 258,5</b>	<b>6 341,5</b>	<b>104,0</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	914,2	1 155,2	104,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 945,6	2 280,7	104,7
sanoat	1 598,5	1 835,8	104,1
qurilish	347,1	444,9	107,3
Xizmatlar	2 398,7	2 905,6	103,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	528,8	621,0	102,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	421,7	482,1	105,1
boshqa xizmat tarmoqlari	1 448,2	1 802,5	102,6

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida o'sish sur'ati - 104,9 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 18,2 %), sanoatda – 104,1 % (28,9 %), qurilishda – 107,3 % (7,0 %) va xizmatlar sohasida – 103,1 % (45,9 %) ni tashkil etdi.

**2020-yilning yanvar-martida YaHMning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,6 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 0,8 % punktga o'sdi va hisobot davrida 18,2 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 1,1 % punktga kamaydi va 35,9 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 45,9 % ni tashkil etdi va 2019 – yilning mos davri (45,6 %) bilan taqqoslaganda 0,3 % punktga o'sdi.

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart





- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 9,8 % ni (2019 - yil yanvar - mart 10,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 7,6 % ni (8,0 %), boshqa xizmat tarmoqlari – 28,5 % ni (27,5 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)

**2019-yil yanvar-mart**

**2020-yil yanvar-mart**



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Boshqa xizmat tarmoqlari

**Statistika faoliyatini tashkil etish va yig`ma  
axborot-tahliliy ishlar bo`limi**  
**Nashr uchun mas`ul: Z.Mamataliyev**  
**Tel.: (0373) 241-98-71**